Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ҳисоблаш, суғурта захираларини инвестиция дастурларини тахлил қилиш ва истиқболини белгилаш билан боғлиқ бўлган актуарий институтини янада ривожлантириш мақсадга мувофиқдир;

Суғурта компаниялари инвестицияга маблағларни йўналтириш жараёнида фючерс ва опцион шартномалар тузишлари керак. Бу турдаги шартномалар тузиш орқали инвестициядан келадиган даромадларни камайишини ёки йўқотилишини олдини олиш мумкин;

Республикамиздаги айрим йирик компанияларни ҳисобга олмаган ҳолда айтадиган бўлсак, инвестицион портфелни бошқаришни ўз зиммаларига олишмоқда. Бугунги кунда компанияларда портфелни бошқариш бўйича малакали мутахассислар етишмаслиги кузатилмоқда. Инвестиция портфелини шу иш билан шуғулланувчи ташкилотларга бериш, яъни аутсорсингни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Суғурта компанияларини фаолияти бўйича ойлик газета ва журналлар ташкил қилиш, ундан ташқари ташкилотларнинг акциялари баҳолари котировкасини чоп этиб борувчи нашрлар ташкил этиш керак. Шунда, суғурталовчиларни акцияларни сотиб олиш ёки сотиш имкониятлари ошса, суғурта қилдирувчилар учун эса суғурта компанияларни танлаш имконияти бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.11.2021 й., 03/21/730/1089-сон).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.03.2024 й., 07/24/108/0171-сон;

3.Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2009 йил 16 июлда 1982-сон билан рўйхатдан ўтказилган “Суғурталовчи ва қайта суғурталовчининг инвестицион фаолияти тўғрисида низом” Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 29-сон, 340-модда.

QISHLOQ XO‘JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH

Turayeva Gulizahro
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Sheraliyeva Farangis Narzulla Qizi
Guliston davlat universiteti magistri
Iskanova Mavlyuda
Guliston agrotexnologiyalar texnikumi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ma’lum bir iste’molchilarning talablarini aniqlash va qondirishga qaratilgan marketingga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Agar oldin korxona birinchi navbatda ishlab chiqarishga tegishli tadqiqotlarni bajargan bo‘lsa, unda marketing tizimi asosiy e’tiborni bozordagi ahvolning tahliliga qaratadi. Agar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari assortimentini rejalashtirish oldin faqat uning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lsa, unda marketing tizimi, asosan, iste’molchi talablarini hisobga oladi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga

Published: 23.12.2024

Cite this article: Turayeva Gulizahro, Sheraliyeva Farangis Narzulla qizi, Iskanova Mavlyuda (2024). Qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilish. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1154

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ko‘paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi. Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Joriy yilning o‘zida 25 ming gektar paxta maydonlarida suv tejovchi yangi sug‘orish tizimi joriy qilindi. Foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yerni qayta ishga kiritish bo‘yicha sa'y-harakatlar boshlandi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat majmuasi, Ilmiy-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy munosabatlar

KIRISH


Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz to‘kin, xalqimiz rizqi mo‘l-ko‘l bo‘lishidan tortib eksportdan qo‘shimcha daromad topishgacha bo‘lgan juda ko‘p masalalar shu soha bilan bog‘liq. Prezidentimiz faqat bugunni emas, balki ertangi kunni ham o‘ylab, uzoqni ko‘zlab islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish vazifasini qo‘ymoqda. Shu maqsadda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu iqtisodiyotimizning asosiy o‘sish nuqtasi, "drayveri" bo‘ladi. Ming- minglab ish joylari yaratiladi, odamlarning daromadi oshadi. Yig‘ilishda mazkur strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muhim vazifalar belgilab berildi.

Bunda, avvalo, qishloq xo‘jaligi yerlarining aniq hisobini yuritish, ulardan foydalanishni takomillashtirish lozimligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, "Yergeodezkadastr" qo‘mitasiga 2021 yilda respublikaning barcha hududlarida yerni hisobga olish, yer hisobini yuritish bo‘yicha yagona elektron bazani yaratish topshirilgan edi. Qayd etilganidek, unumdorlikni oshirishga, ko‘p yillik mevalar yetishtirishga intilishi uchun yer egalarining ertangi kunga to‘la ishonchi bo‘lishi kerak. Shu bois Prezidentimiz qonunchilikni qayta ko‘rib chiqib, yer ajratishning shaffof tizimi va yerga bo‘lgan huquqning kafolatlanishini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon suv resurslari instituti tahminlariga ko‘ra, 2040 yilga borib O‘zbekiston suv o‘ta tanqis bo‘lgan 33 mamlakat qatoridan joy olishi mumkin. Shu bois davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e'tibor qaratib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va uning hisobini yuritish, har yili 200 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilib borish zarurligini ta'kidladi. Ushbu yo‘nalishlar ishlab chiqilayotgan strategiyada o‘z aksini topishi kerakligi aytildi. Qishloq xo‘jaligida suvdan to‘g‘ri foydalanish ham juda muhim masala. (1-diagramma) Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari kundan kunga rivojlanib bormoqda.

Tahlillarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish uchun yurtimizda ekin maydonlariga milliardlab kub metr suv yo‘naltirilsa-da, uning faqat 60 foizi ekinlarga yetib boradi, 40 foizi sug‘orish tizimlarida va sug‘orish jarayonida yo‘qotiladi.**1-diagramma. Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari**



MUXOKAMALAR VA NATIJALAR

Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlabchiqarish hajmini ko‘paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi. Masalan, Turkiyada 1 gektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollarlik mahsulot yetishtiriladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 300 dollardan oshmayapti. Doim bir xil standartdagi tovar yetkazib berish yo‘lga qo‘yilmagani sababli mahsulotlarimiz tashqi bozorda raqobatlasha olmayapti.

Yig‘ilishda mutasaddilarga mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo va arab

mamlakatlari standartlari asosida sertifikatlash tizimini joriy etish bo‘yicha topshiriqlar

berildi.


Bu borada tomorqa xo‘jaliklari ham katta rezerv ekani, "bir mahalla – bir mahsulot"tamoyili asosida joylarda logistika xizmati va kooperatsiya tizimini keng joriy qilish lozimligi qayd etildi.

Xizmat ko‘rsatish borasida ham kamchiliklar mavjud. Masalan, bu tizimda raqobat yo‘qligi sababli xizmatlar narxi yuqori, mahsulot ishlab chiqaruvchining tanlash imkoniyati yo‘q. Shuning uchun mineral o‘g‘itlarni yetkazib berish, o‘simliklarni himoya qilish, texnika va boshqa xizmatlar sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat turlarini ko‘paytirish,xususiy korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta'kidlandi.Shuningdek 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirishda bozor mexanizmlariga tayangan holda ishlarni amalga oshirish va bosqichma bosqish xosildorlikni oshirib boorish ko‘zda tutilgan. **1-jadval.**

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Asos (2018 y.)	2021 yilga maqsad	2025 yilga maqsad	2030 yilga maqsad
1.1	Boshoqli donning o‘rtacha hosildorligini oshirish	43 s/ga	60 s/ga	70 s/ga	75 s/ga
1.2	Sigirlarning o‘rtacha sut mahsuldorligini oshirish	2 320 kg/ bosh	2 700 kg/ bosh	3 100 kg/ bosh	3 500 kg/ bosh
1.3	Umumiy ekin maydonlari tarkibida ozuqa ekinlari maydonlari ulushi	7 %	10 %	12 %	15 %

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Manba: www.lex.uz



2-diagramma. O‘zbekiston Respublikasida barcha toifaladagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari

Joriy yilda boshlangan yerni kosmik zondlash orqali tuproq va ekinlarning haqiqiy holatini tezkor va ishonchli baholash ishlarini 2023 yil yakuniga qadar to‘liq oxiriga yetkazish darkor. Bu tizim vegetatsiya jarayoni, tuproqning meliorativ holati va minerallashuv miqdori, namlik darajasi haqida to‘liq ma'lumotlarni berib, hosildorlikni 25-30 foizga oshirish imkonini beradi. Mutasaddilarga ekinlarni joylashtirishdan tortib, sotuvgacha bo‘lgan jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish tizimini joriy etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

XULOSA

Yuqoridagi vazifalar bajarilishini samarali tashkil etish uchun eng avvalo malakali kadrlar

kerak. Xalqaro tajriba asosida sohaga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning
yangi metodikasini tatbiq etish, professor-o‘qituvchilar ishtirokida sayyor o‘quv darslari
hamda seminarlar tashkil etish muhimligi qayd etildi.
Ilmiy-tadqiqot institutlarida ertapishar mahsulot turlari va hududlar iqlimiga mos chorva
zotlarini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha ham ko‘rsatmalar berildi.
Umuman olganda, yangi strategiya qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilib,
ilmiy asoslangan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali oziq-ovqat xavfsizligini
ta'minlash, eksportni ko‘paytirish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulotlar hajmini
bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING 2020 — 2030-YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIYASI://lex.uz/docs/-4714632
2. Gulizahro, T., Shohzodbek, S., Nodirjon, I., & Nasiba, R. (2022). The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today's Economy. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 1(2), 5-10.
3. Turayeva G. et al. QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTIDA START UP TASHABBUSLAR HAMDA ISHLAB CHIQARUVCHI BIRLASHMALARINI QO‘LLAB QUVVATLASH //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 86-90.
4. Qaxxorovna T. G. DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR //Analysis of International Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 19-23.
Gulizahro T.,. QISHLOQ XO‘JALIGIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH STATISTIKASI //Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 36-38.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI

Mullabayev Murod Farxodjonovich
“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruv kotibiyati Tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash boshqarmasi Kotibiyat bo‘limi boshlig‘i
narzilmirvoshi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida elektron tijoratning global va mahalliy iqtisodiyotga ko‘rsatadigan ta’siri yoritiladi. Tezisda elektron tijoratning ishbilarmonlik muhiti, tadbirkorlikni rivojlantirish